

## Jurnalistlar uchun press-tur tashkil etildi

Tumanimizning sanoat salohiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni, jumladan bu ishlarda "WIRE CABLE SISTEM GROUP" xususiy korxonasining ishtiroki salmog'i bilan keng jamoatchilikni tanishtirish maqsadida Buvayda tumani Arab mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan "WIRE CABLE SISTEM GROUP" xususiy korxonasiga jurnalist va blogerlar ishtirokida press-tur tashkil etildi.



Jurnalistlar va blogerlar "WIRE CABLE SISTEM GROUP" xususiy korxonasining nisbatan qisqa vaqt ichida 42 turdag'i kabellar ishlab chiqarish bo'yicha Viloyatdagi eng yirik korxonaga aylangani ularning etiborini tortdi. Darhaqiqat, zavodning quvvati va salohiyati ortib bormoqda. Asosiy e'tibor ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha jahon standartlariga mos bo'lismiga qaratiladi. Buning natijasi o'laroq, zavod mahsulotlari xalqaro sertifikatlariga erishgan.



Mehmonlar zavodning sexlarida bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini yaqindan kuzatdilar, xodimlar bilan tanishib, yetakchi mutaxassislar bilan suhbatlashdilar. Mahsulotlar sifati qay darajada sinchkovlik bilan tekshirilishini o'z ko'zlari bilan ko'rdilar.

2024-04-22 09:58:39